

ILMIY TADQIQOT ISHI (MAQOLA) FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR QISMINI SHAKLLANTIRISH

Tojiboyeva Mushtariy Rustam qizi

Navoiy davlat pedagogika instituti

O'zbek tili va adabiyoti fakulteti 4-bosqich talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada tadqiqotchiga ilmiy tadqiq ishi (maqola)ni shakllantirishda uning foydalanilgan adabiyotlar qismini tashkil etish bo'yicha batafsil ko'rsatmalar berilgan.

Kalit so'zlar: alohida nashrlar, jurnal maqolalari, ilmiy to'plam maqolalari, dissertatsiya avtoreferatlari, adabiyotlar ro'yxati.

Foydalanilgan adabiyotlar – har qanday tadqiqotning muhim bir tarkibiy qismi. Foydalanilgan adabiyotlarni berayotganda uning bir nechta turlari farqlanadi:

- alohida nashrlar;
- jurnal maqolalari;
- ilmiy to'plam maqolalari;
- dissertatsiyalar;
- dissertatsiya avtoreferatlari.

Ushbu turdagi adabiyotlarning har birini foydalanilgan adabiyotlar ro'yxatida berishning o'ziga xos tartib, tamoyillari, qoidalari mavjud. Adabiyotlar ro'yxati qat'iy alifbo tartibida bo'ladi. Agar, adabiyotlar turli tillarda bo'ladigan bo'lsa, bu adabiyotlar ham alohida beriladi. Masalan, o'zbek tilidagi adabiyotlar alohida tartib raqamida va bu ro'yxat tugagandan keyin boshqa tildagi adabiyotlar shu tartibda davom etadi. Bu ko'pincha imlo bilan bog'liq. Agar adabiyotlar ro'yxati krill yozuvida berilayotgan bo'lsa, ilmiy tadqiqot krill yozuvida bitilayotgan bo'lsa, bunda rus tilining alifbosi va imlosi bilan o'zbek tilining krill alifbosi va imlosi bir xil bo'lganligi uchun rus tilidagi va o'zbek tilidagi adabiyotlar bitta umumiy ro'yxat ostida beriladi. Agar o'zbek tilidagi tadqiqot lotin yozuvida bitilayotgan bo'lsa, bunda rus tilidagi adabiyotlar boshqa alifbo tartibiga bo'ysunganligi sababli alohida ro'yxat qilinadi va lotin alifbosidagi adabiyotlarimiz ham alohida ro'yxat qilinadi. Endi bunda lotin yozuvida ish ko'ruvchi xalqlar olimlarining o'sha tildagi, deylik, ingliz, nemis, fransuz tilidagi adabiyotlar ham bizning lotin alifbomizdagi o'zbekcha adabiyotlarimiz bilan bitta ro'yxatda beriladi. Ayrim vaziyatlarda lotin yozuvi va krill yozuvidagi adabiyotlarni aralashtirib berish holatlari ham uchrab turadi. Bunday holat bizning tadqiqotchilarimizda olimlarning ishlarida uchramaydi. Bu endi ilmiy tadqiqotga kirib kelayotgan talabalarning ishlarida ko'proq ko'zga tashlanadi. Yana shuni alohida ta'kidlash lozimki, adabiyotlarni ro'yxatlashtirishda bugungi kunda qo'l usulidan foydalanilmaydi. Buni kompyuterda maxsus dastur bajarib beradi. Barcha shu dasturdan foydalanadi. Ammo bu kompyuterning bosh oynasida ko'rinib turgan "A—YA" darchasida amalga oshiriladi. Bu darchadagi alifbo tartibida ro'yxatlashtirish krill alifbosiga mo'ljallangan hamda u rus-krill alifbosiga mos tushib, o'zbek-krill alifbosiga mos tushmaydi. Shunda masalan, Hojiyev familiyasi krill alifbomizda ro'yxatning oxirida kelishi kerak. Lekin bu darcha "O' " harfi bilan boshlanuvchi familiyani "U" harfi bilan boshlanuvchi familiya bilan bir joyga qo'yadi. Yoki "H" harfi bilan boshlanuvchi muallif familiyasini "X" harfi bilan boshlanuvchi familiyalar bilan bir joyga qo'yadi. Shuning uchun krill alifbosida maxsus dastur asosida adabiyotlar ro'yxatini rasmiylashtirayotganda yana bir bor ko'z tashlab, bunday holatlardagi chalkashliklarni qo'l bilan tuzatib chiqish kerak bo'ladi.

Alohida nashrlar: Ne'matov H, Mengliyev B. Tilshunoslikning metodologik masalalari, - Toshkent: Akademya nashr, 2010. – 250 b. Ko'pincha Toshkent so'zini T harfi beradi. Bu xalqaro bibliografik kelishuvga muvofiq Toshkent so'zini to'liq yozish belgilab

berilgan. Sobiq Ittifoq hududi hali ham bitta bibliografik qoida asosida ish ko‘radi. Faqat ikkita shaharning nomi – Moskva, Lelingrad yoki Sankt-Peterburg joy nomlari qisqartirib beriladi. Sankt-Peterburg “Spb” bilan beriladi. Moskva, Lelingradlar bitta bosh harf bilan beriladi. Boshqa shaharlarning barchasining nomlari to‘liq yoziladi. Agar to‘liq yozmasdan Toshkentni “T” harfi bilan beradigan bo‘lsak, bu Termiz shahrini ham anglatib qolishi mumkin. Samarqand so‘zini “S” bilan beradigan bo‘lsak, bu Samara so‘zini ham anglatib qolishi mumkin. Shuning uchun to‘liq beriladi va to‘liq berilgandan keyin, albatta, ikki nuqta (:) qo‘yiladi. Bu ikki nuqta Toshkentdan keyin kelib, nashriyot nomi qo‘yilishini bildiradi. Nashriyot nomi qo‘shirnoq ichiga olinmaydi. Toshkent: Akademya, 2010. – 250 b. Bu yerda 250 ana shu manbaning oxirgi sahifasini ko‘rsatadi. Shuning uchun undan oldin tire (-) qo‘yiladi. Manbani berayotganda adabiyotlar ro‘yxatida, albatta, kitobning oxirgi sahifasi, umumiy hajmi qo‘yilishi shart. Agar ana shu umumiy sahifa qo‘yilmaydigan bo‘lsa, bibliografik xatolik yuzaga keladi. Alohida ta’kidlab o‘tish lozimki, ba’zi hollarda nashriyot nomining bir qismi qo‘shirnoq ichiga olinishi mumkin. Masalan, Sharq nashriyot matbaa aksionerlik kompaniyasini yozmoqchi bo‘lsak, bunda nashriyot matbaa aksionerlik kompaniyasi bosh harflar bilan qisqartiriladi – NMAK. Bundan avval biz Sharq so‘zini yozishimiz kerak bo‘ladi. Ana shunda Sharq so‘zi qo‘shirnoq ichiga olinadi. “Sharq” NMAK, 2010. Yoki “O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” davlat nashriyoti tarzida yozilishi mumkin. Agar nashriyot bir so‘zdan iborat bo‘ladigan bo‘lsa, u hech qanday qo‘shirnoq ichiga olinmaydi. Masalan, Akademya, Mumtoz so‘z, Fan, Cho‘lpon, Tafakkur gulshani, O‘qituvchi kabi nashriyotlar nomlari qo‘shirnoq ichida berilmaydi. Mualliflar uchtagacha bo‘lsa, barchasi beriladi. Agar mualliflar soni uchtagacha ko‘p bo‘ladigan bo‘lsa, uchtagacha yoziladi va keyin “va boshqalar” ma’nosida “va b.” deb beriladi. Masalan, Salimov P, Alimov A, Haydarova G. va b.

Ana shunga alohida e’tibor berish kerak.

Jurnal maqolalarini berish alohida nashrlarni berishdan farq qiladi. Jumladan, Shoabdurahmonov SH. Antroponimik formatlarning tarkibiy-funksional rivoji haqida // O‘zbek tili va adabiyoti. – 2003. № 4. – 20-25. Bunda e’tibor qaratadigan bo‘lsak, jurnal nomi yozilishidan avval o‘ng tomonga yotgan qo‘shchiziq qo‘yilib, jurnal nomi qo‘shirnoqqa olinmasdan yoziladi. Alohida nashrlarda umumiy sahifa ko‘rsatilgan, jurnallarda esa oxirgi sahifa ko‘rsatilmaydi. Shuning uchun avval B belgisi qo‘yiladi, bu bet degani va ana shu maqola jurnalning nechinchisi sahifasida ekanligi yoziladi. Mana olim Shoabdurahmonovning maqolasi O‘zbek tili va adabiyoti jurnali 2003-yil 4-sonining 20-25-betlarida joylashgan. Jurnalning umumiy sahifasini qo‘yish buyerda hech qanday mantiqqa ega bo‘lmay qoladi. Demak, adabiyotlar ro‘yxatida jurnalning nechinchisi sahifasida joylashganligi to‘liq qo‘yilsa, havolalarda qaysi sahifadan foydalanilganligi qo‘yiladi. Agar mana shu Shoabdurahmonovning ushbu maqolasini biz maqola matnidan foydalanib havola bermoqchi bo‘lsak, deylik, biz uning 20-25-betlaridan faqat 23-betidan foydalansak, B. 23 qo‘yiladi. Havolada 23 qo‘yiladi, adabiyotlar ro‘yxatida esa maqolaning to‘liq sahifalari ko‘rsatiladi.

Ilmiy to‘plam maqolalarining berilishi jurnal maqolalarining berilishiga o‘xshab ketadi. Ammo jurnal maqolalarini adabiyotlar ro‘yxatida berayotganda nashriyot qo‘yilmaydi. Jurnalning o‘zining nomi bu yerda yetarli deb qoidalashtirilgan. Lekin ilmiy to‘plamda quyidagicha beriladi: Nurmonov A. Mahmudxo‘ja Behbudiy va o‘zbek tilshunosligi masalalari // O‘zbek filologiyasi masalalari. Ilmiy maqolalar to‘plami. 3-chiqish. – Samarqand: SamDU nashriyoti, 2001. – B. 18-21. Bu yerda Mahmudxo‘ja Behbudiy va o‘zbek tilshunosligi masalalari – ilmiy to‘plamdagi maqolaning nomi; O‘zbek filologiyasi masalalari – ilmiy to‘plamning nomi; Ilmiy maqolalar to‘plami – ilmiy to‘plamning xususiyati, chunki ilmiy ma’ruzalar to‘plami, ilmiy tezislari to‘plami bo‘lishi mumkin; 3-chiqish – agar mana shu ilmiy to‘plam har yili doimiy ravishda chop etib kelinayotgan bo‘lsa, uning nechanchisi chiqishi ekanligi yoziladi, agar to‘plam bir martalik chop etilgan bo‘lsa, uning nechanchisi chiqishi haqidagi ma’lumot berilishi kerak emas, shuning o‘zi ham uning bir marta chiqqanligini

ko'rsatadi. Xuddi alohida nashrdagidek Samamrqand: SamDU nashriyoti, 2001. deb yozilganidan keyin endi bu tomoni jurnaldagi qisqartmaga o'xshaydi: B. 18-21. Adabiyotlar ro'yxatida B. 18-21 qilib beriladi. Agar havola sifatida berilsa, ana shu 18 bilan 21 oralig'idagi biror sahifa berilishi mumkin. Ba'zi kishilar tomonidan e'tiroz bildiriladiki, ana shu jurnal, ilmiy to'plam maqolalarini adabiyotlar ro'yxatida shakllantirayotganda "Nega B oldin qo'yiladi, sahifalardan keyin emas?", "Bu o'zbekcha emasku!", deyishadi. To'g'ri, bu qolip rus tilining bibliografik qoidalaridan o'zlashtirilgan. Lekin o'zbek milliy bibliografiyasi ham shu tarzda berishni ma'qul topgan. Agar biz shu tarzda bermaydigan bo'lsak, alohida nashrlardagidek sahifa orqasidan B ni beradigan bo'lsak, bunda u umumiy sahifani bildirib qolgan bo'lar edi va umumiy sahifa bilan ushbu jurnal yoki to'plamda maqolaning egallagan sahifasida farq bo'lmay qolar edi va noaniqlik vujudga kelar edi.

Dissertatsiya va avtoreferatlarni berish ham o'ziga xos qoidalariga ega. Rus tilidagi dissertatsiyalarni berishda boshqacha qisqartmalardan, o'zbek tilidagi dissertatsiyalarni berishda boshqacha qisqartmalardan foydalaniladi. Masalan, rus tilidagi dissertatsiyalar adabiyot ro'yxatiga quyidagicha kiritiladi: Садиков К. Категории падежа в узбекском языке: Дисс. ... канд. филол. наук – Ташкент, 1963. – 150 с. Dissertatsiyadagi alohida nashrdan farqli jihati shundan iboratki, bu yerda joy nomi yozilgandan keyin ikki nuqta qo'yilmaydi. Chunki dissertatsiya birorta nashriyotda chop etilmaydi, shuning uchun joy nomidan keyin vergul qo'yilib, dissertatsiya himoya qilingan yil yoziladi. Adabiyotning davomi alohida nashrdagidek beriladi va bu yerda 150 с, ya'ni страница. Rus tilidagi adabiyotlar sahifa so'zi ham rus tilida yoziladi. Joy nomi ham rus tilida yoziladi, masalan, Toshkent emas, Ташкент deb yoziladi. Chunki u dissertatsiyaning o'zida u shunday yozilgan. Biz dissertatsiyada qanday yozilgan bo'lsa, xuddi shunday yozishimiz kerak bo'ladi. Ba'zi kishilar krill yozuvida yozilgan adabiyotni adabiyotlar ro'yxatida lotin yozuvida beradi. Yoki uning aksi: lotin yozuvida yozilgan adabiyotni ro'yxatda krill yozuvida beradi. Bu to'g'ri emas. Qaysi yozuvda yozilgan bo'lsa, qaysi tildan bo'lishidan qat'iy nazar o'sha yozuvda beriladi. Lozim topilsa, qavs ichida uning maqola tiliga tarjimai berilishi mumkin. Agar maqola o'zbek tilida yozilayotgan bo'lsa, adabiyot arab tilida bo'lsa, havolada ham, adabiyotlar ro'yxatida ham avval manbaning asl tildagi yozilishi beriladi va qavs ichida tarjimai berilishi mumkin. Ammo bu shart emas. O'zbekchada quyidagicha beriladi: Худойназаров И. Эргаш Жуманбулбул угли дostonларидаги антропонимларнинг луғавий тизимдаги урни. Филол. фанлари номзоди. ... дисс. – Тошкент 1998. – 120 б.

Avtoreferatlarda farq shundaki, birinchidan, bunda qisqartma "avtoref" degan so'z bilan bo'ladi. 1. Халимов К. Категории принадлежности в узбекском языке: Автореф. дисс. ... канд. филол. наук. – Ташкент, 1963. – 20 с. 2. Худойназаров И. Эргаш Жуманбулбул угли дostonларидаги антропонимларнинг луғавий тизимдаги урни. Филол. фанлари номзоди. ... дисс. ... автореф. – Тошкент 1998.- 21 б.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Peregulov L.V., Saidov M.X., Aliqulov D.E. Ilmiy ijod metodologiyasi. – Toshkent: "Moliya" nashriyoti, 2002.
2. Yusufbekov.N.R., Muhamedov B.E., G'ulomov Sh.M. Texnologik jarayonlarni boshqarish sistemalari. – Toshkent: "O'qituvchi" nashriyoti, 1997.
3. Asilova G.A. Ilmiy Tadqiqot faoliyati asoslari. Uslubiy qo'llanma. – Toshkent. 2020.
4. <http://www.vak.uzsci.net>
5. <http://dissertatsija.com/>